

**O'QUV LUG'ATLARINING LINGVODIDAKTIK XUSUSIYATLARI VA
KOMMUNIKATIV VAZIFASI**

Xurshida Shamsuddinova Samariddin Qizi

Shahrisabz davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti
xurshidashamsuddinova1@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 04.06.2026

Revised: 05.06.2026

Accepted: 06.06.2026

Maqolada o'quv lug'atlari, ularning paydo bo'lish tarixi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, ularning ta'limiy maqsadlarda foydalanishi, darajalanishi hamda jamiyatda kommunikativ vazifa bajarishi, ulardan o'rinli foydalanish asoslab berilgan.

KALIT SO'ZLAR:

*o'quv lug'ati,
lug'atlarning
muloqotdagi o'rni,
lingvodidaktik
xususiyati,
kommunikativ vazifasi.*

Bugungi kunda til o'rganish va o'rgatish jarayonida o'quv lug'atlari eng muhim resurslardan biri bo'lib, til bilimlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bevosita ta'lim uchun yo'naltirilgan lug'atlar o'quv lug'atlari sanaladi. O'quv lug'ati- ta'lim jarayonida o'quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi, ma'lum yosh, bosqich va o'quv maqsadlariga mos holda tuzilgan maxsus lug'atdir. O'quv lug'ati faqat so'zning ma'nosini emas, uning qo'llanish doirasi, uslubiy xususiyatlari, grammatik shakllari va nutqdagi vazifasini ham ochib beradi.²²

O'quv lug'ati termini rus lug'atchiligida ilk marotaba Polivanovning "Qisqacha ruscha-o'zbekcha lug'ati" da yozgan kirish so'zida qo'llanadi. Muallif lug'at to'g'risida shunday deydi: "...lug'at hajmiga ko'ra o'quv lug'ati tipiga mansub..."

Bugungi kunda olimlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan bir qancha lug'atlar mavjud, ammo ular yetarli emas. Professor B. Mengliyevga ko'ra, "O'quv lug'ati zaruriyati haqida ko'p gapirib, yozib kelinmoqda. O'quv lug'ati yaratilmas, o'quvchining stolida ona tilidan uning yoshiga mos ko'plab o'quv lug'atlari turmas, buning uchun o'quv leksikografiyasi nazariy va amaliy soha sifatida tizimli yo'lga qo'yilmas ekan, ona tili ta'limi o'zining haqiqiy mohiyatidan begonaliqicha qoladi".

²² Turdimurodova M. "O'quv lug'atlarini yaratish jarayonida e'tiborga olinadigan lingvistik omillar" maqola

O'quv lug'atlari so'z boyligini oshirish, nutqiy kompetentlikni shakllantirish, matn tushunishni yengillashtirishda beqiyos ahamiyatga ega. O'quv lug'atlari til o'rganayotgan shaxslar uchun so'zning ma'nosi, grammatik xususiyatlari va matndagi vazifasini aniqlab beradi. Bu esa chet tili o'rganuvchilarning nutqini boyitadi hamda mustaqil foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi. O'quv lug'atlari tilni to'g'ri tanlashga va vaziyatga moslab to'g'ri ishlatishga yordam beradi. Bu holat faqat ta'lim jarayonidagina emas, balki kundalik hayotda ham samarali foydalanishni ta'minlaydi. Hozirgi kunda an'anaviy qog'oz shaklidan chekinib, elektron lug'atlar, mobil ilovalar va onlayn bazalar shakllanib bormoqda. Bu esa til o'rganuvchiga istalgan joy va vaqtda undan foydalanish, tarjima yuritish hamda so'z ma'nolarini anglashga yordam bermoqda. Elektron lug'atlar, onlayn tarjima xizmatlari va mobil ilovalar orqali bugun so'z boyligini kengaytirish va leksemani muloqotimizga kiritish jarayoni ancha osonlashdi. Ushbu resurslar o'rganuvchiga oddiygina izoh berib qolmay, uni audio talaffuz kontekstli misollar, o'yinlar orqali o'rganishni samarali qilib kelmoqda. O'quv lug'atlari bugun ta'limiy maqsadlarga yo'naltirilgan va o'rganishga qulayligi bilan jamiyat hayotiga kirib kelmoqda. Aynan mana shu maqsadlar o'quv lug'atlarining lingvodidaktik xususiyatlarini belgilaydi.

O'quv lug'atlarida so'zlar qanday tanlanadi? Avvalo ular o'quv dasturiga mos bo'lishi, nutqda faol qo'llanadigan va o'quvchining yosh va bilim darajasiga mos holda tanlanishi kerak. So'zlarining ma'nolari esa murakkab ilmiy ifodalardan xoli va aniq, lo'nda, tushunarli tarzda berilishi kerak. Har bir so'z gap yoki matn ichida qo'llanilib, misollar bilan boyitilgan va o'quvchining kontekst orqali tushunishini ta'minlashi zarur. So'z turkumi, so'z yasalishi, uslubiy bo'yoq (rasmiy, so'zlashuv, publisistik) ko'rsatiladi. Jadval, belgilar, rasmlar bilan boyitiladi. Undai ranglar, ajratmalar o'rganishni yengillashtirishga xizmat qiladi va o'quv lug'atlarining lingvodidaktik xususiyatlarini ko'rsatadi. Rus lug'atchiligida Morkovkin talqinida o'quv lug'atlarida hajm emas, lingvodidaktik xarakter, ya'ni ta'limga yo'nalganligiga alohida e'tibor qaratiladi va u an'anaviy leksikografiya va lingvometodika fanlarining kesishmasida bo'lgan fan sifatida berilgan.²³

Ba'zi tadqiqotlarda o'quv lug'atlarini tuzishda quyidagi lingvodidaktik tamoyillarga amal qilish zarurligi aytiladi:

Bosqichlilik tamoyili. So'zlar murakkablik darajasiga qarab tartiblangan bo'ladi. Oddiy va keng qo'llaniladigan so'zlar birinchi navbatda beriladi, keyinchalik ixtisoslashgan terminlar kiritiladi.

Funksionallik tamoyili. Bunda esa lug'atda keltirilgan ma'lumotlar amaliy foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lishi kerak.²⁴

Darajalanish tamoyilini takomillashtirish uchun yana bir qator ishlar amalga oshirilishi kerak. Jumladan, lug'atda berilgan leksemaning izohini aniq darajalarga bo'lish, lug'atda

²³ Морковкин В.В Основы теории учебной лексикографии: Дисс. ...докт.филол.наук (в форме научного доклада).-М.: Институт русского языка им. А. С.Пушкина, 1990.-С.8

²⁴ Eshboyev Q.B. "O'zbek lug'atlari izohlarida darajalanish tamoyilini takomillashtirish"

=====
keltirilgan leksemalar izohi foydalanuvchilar yosh darajasiga moslab yozilishi kerak va har bir daraja uchun izohlar turlicha bo'lishi kerakligi aytilgan⁴. *Boshlang'ich daraja*- oddiy va qisqa izohlar , tushunarli misollar bilan ; *O'rta daraja*-batafsilroq izohlar , qo'shimcha ma'lumotlar; *Yuqori daraja*- ilmiy va murakkab tushunchalar , terminologik izohlar bilan yoritiladi.

Masalan: **Maktab** so'zini olaylik. Bu so'z *boshlang'ich darajada*: Bolalar o'qiydigan va bilim oladigan joy. U yerda o'qituvchilar dars beradi. *O'rta daraja*: O'quvchilarga ta'lim va tarbiya beradigan ta'lim muassasasi. Unda turli fanlar o'qitiladi va o'quvchilar bilim, ko'nikmalarni egallaydi.

Yuqori daraja: Maktab- jamiyatning muhim ijtimoiy instituti bo'lib, u yosh avlodga tizimli ravishda bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlarni singdiradi. Maktab nafaqat ta'lim berish, balki shaxsni ijtimoiylashtirish, uning dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirish vazifasini ham shakllantiradi.

Til insonlar o'rtasida asosiy aloqa vositasi sanaladi. Jamiyat taraqqiyoti tilning boyish va takomillashuvi bilan chambarchas bog'liq. O'quv lug'atlari til o'rganishda muloqot vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi, o'quvchilarga til birliklaridan (so'z, atama, ibora) to'g'ri foydalanishni o'rgatish orqali samarali muloqotni ta'minlaydi . So'z va iboralarning aniq, sodda izohini berib, ularni to'g'ri anglashga yordam berishi, so'zlarni gap ichida qanday ishlatilishini misollar orqali ko'rsatishi, so'zning qaysi nutq uslubida yozilishini , orfoepik va orgografik me'yorlarni ko'rsatishi, sinonim, antonim va yaqin ma'noli so'zlarni berib, ifoda imkoniyatlarini kengaytirishi uning kommunikativ vazifasi sanaladi. O'zbek tilining izohli lug'ati nafaqat so'z ma'nosini, balki uning turli kontekstlardagi qo'llanishini ko'rsatadi, bu esa kommunikativ vazifa bajarishga xizmat qiladi. Lug'atimizga zamonaviy va aktual so'zlarni kiritish, ya'ni, yangi atamalar, internet va texnologiyaga oid so'zlarni qo'shish, kontekstual so'zlarni ko'paytirish(har bir gap uchun hayotiy va sodda gaplarni qo'shish), vizual materiallardan foydalanish (rasmlar, jadvallar, sxemalar orqali tushunishni kuchaytirish), uslubiy belgilarni aniq ko'rsatish (rasmiy, so'zlashuv, shevaga xos, eskirgan va h.k), elektron va interaktiv lug'atlar yaratish, metodik tavsiyalar qo'shish (o'qituvchi va o'quvchilarning qanday foydalanishi bo'yicha yo'riqnomalar berish) orqali lug'atlarning kommunikativ vazifasini yaxshilashimiz mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'quv lug'atlari til o'rgatish jarayonida muhim lingvodidaktik vosita sifatida xizmat qiladi. Ular nafaqat so'zlarning ma'nosi va qo'llanishini izohlash, balki o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish, leksik boyligini tizimli ravishda oshirish hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O'quv lug'atlarining lingvodidaktik xususiyatlari — soddalik, tushunarlilik, maqsadga yo'naltirilganlik va tanlangan leksik minimum asosida tuzilishi — ta'lim samaradorligini ta'minlaydi.

=====

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mengliyev B., Bahridinova B. O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati.- T.: O'zbekiston, 2007
2. Bahridinova B.M. O'zbekistonda o'quv lug'atchiligi : lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari . Samarqand 2020
3. E Markina. “О соотношении понятий “лексический минимум” и “учебный словарь”
4. Ilk qadam davlat o'quv dasturi Toshkent.2022